

INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI NIZOLARNI HAL QILISHDA MILLIY SUDLARNING VAKOLATLARI VA ULARNI KENGAYTIRISH MASALALARI

Ismoilov Mavludbek Muqimjon o'g'li

*Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual mulk huquqi kafedrası o'quv ishlari
bo'yicha o'qituvchi assistenti
ismoilovmavludbek@gmail.com*

Bugungi kunda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish masalasi global ahamiyat kasb etmoqda. Jahon iqtisodiyotining raqamlashtirishi, innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi va kreativ industriyaning kengayishi fonida intellektual mulk sohasidagi nizolar ham tobora murakkablashib bormoqda.

O'zbekistonda ham intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va rivojlantirish borasida ahamiyatli qadamlar tashlanmoqda. Shu bilan birga, intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal qilishda sud tizimi muhim rol o'ynaydi. Sudlar intellektual mulk huquqlarini buzish holatlarini aniqlash, ularni tiklash hamda zararlarni qoplash masalalarida hal qiluvchi instansiya sifatida faoliyat yuritmoqda. Biroq, milliy sud tizimining ushbu sohadagi vakolatlari va imkoniyatlari ko'plab savollarni yuzaga keltiradi. Sudlarning intellektual mulk bo'yicha yuritadigan ishlarini yanada samarali va zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etish, ularning vakolatlarini kengaytirish zarurati kun tartibida turgan muhim masalalardan biridir.

Intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal etishda milliy sudlarning roli muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular nafaqat huquqbuzarliklarni bartaraf etish, balki innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va intellektual mulk egalarining huquqlarini ishonchli himoya qilishda ham asosiy institut hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va yangi turdagi intellektual mulk obyektlarining paydo bo'lishi sudlarning mavjud vakolatlarini qayta ko'rib chiqish va kengaytirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Intellektual mulk sohasida ko'rib chiqilgan ishlarni statistikasiga to'xtaladigan bo'lsak, 2013-yil ma'lumotlariga ko'ra, qalbaki mahsulotlarning xalqaro savdosi jahon savdosining 2,5 foizini yoki 338 milliard yevroni tashkil qiladi. Kelajakda bu Avstriya yalpi ichki mahsulotiga yoki Irlandiya va Chexiya yalpi ichki mahsulotiga teng bo'lishi kutilmoqda. Soxta mahsulotlarning ta'siri, ayniqsa, Yevropa Ittifoqida yuqori bo'lib, u yerda kontrafakt va pirat mahsulotlar importning 5 foizini yoki 85 milliard yevroni tashkil qiladi [1]. Intellektual mulk huquqi qolgan davlatlarga qaraganda qattiq himoya qilinadigan Amerika Qo'shma Shtatlarining Intellektual mulk huquqlarini muvofiqlashtirish milliy markazining ma'lumotiga ko'ra,

intellektual mulk sohasidagi jinoyatlar o'tgan yilga qaraganda 21% ga oshgan bo'lib joriy yilda 623 ish ochilgan bo'lib, 434 ta ish hibsga olish bilan yakunlangan [2].

2020-yil va 2021-yilning birinchi yarmidagi statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan intellektual mulk sohasida 310 ta ish ko'rilgan bo'lsa, ularning salmoqli qismi tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari bilan bog'liq hisoblanadi [3]. Bundan tashqari, O'zbekiston respublikasi Mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati ma'lumotlariga ko'ra 2020-yil oxiridan to shu kungacha mualliflar va ijrochilarning buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha 52 ta ish ko'rib chiqilgan [4].

Intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal etishda xalqaro sudlar (arbitraj) bilan birgalikda mahalliy sudlarning ham o'rni katta hisoblanadi. Hozirgi dunyo tajribasini o'rganadigan bo'lsak, sudlar ayrim bir yo'nalishlarga ixtisoslashmoqda. Misol uchun O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-401-sonli Qarorining 9-bandiga ko'ra ixtisoslashtirilgan holda oila sudlari tashkil etildi [5]. Shu o'rinda oldimizda bir savol tug'iladi, sudlarda ko'rib chiqiladigan intellektual mulk sohasidagi nizolarni ko'rib chiqishda ixtisoslashgan sudlarni tashkil etish bu sohadagi huquqbuzarliklarni qay darajada kamayishiga va qarorlarni adolatli qabul qilinishiga olib keladi.

Bu masala bo'yicha olimlarning izlanishlariga to'xtaladigan bo'lsak, Nosirova Intellektual mulk bo'yicha ixtisoslashgan sudlarni tashkil etishning har qanday rejasi tegishli mamlakatda yuzaga kelgan vaziyatni chuqur tahlil qilishni talab qilishini [6], M. Bahromova esa Intellektual mulk sohasidagi ishlarni ko'rib chiqishga ixtisoslashgan sudlarni tashkil etishning afzalliklari yoki kamchiliklarini tahlil qilib chiqqan [7] bo'lsa, ayrim mualliflar ixtisoslashgan sudlarni yaratish zarurligini rad etib [8], sudlarning ixtisoslashishi oxir-oqibat butun sud tizimining parchalanishiga va zaiflashishiga olib kelishi mumkin [9] deb ta'kidlaydilar va ayrim toifadagi ishlarni ko'rib chiqish va hal qilishning o'ziga xos xususiyati sudyalarning ixtisoslashuvi orqali e'tiborga olinishi mumkin deb hisoblaydilar [10]. Ko'plab mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan ixtisoslashgan sudlarning tajribasini o'rganib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkinki, ixtisoslashuv sudyalarga huquqning ayrim sohalarini, ayrim toifadagi ishlarning o'ziga xos xususiyatlari va muhim vaziyatlarni chuqur bilish asosida yanada malakali sud qarorlarini qabul qilishga va umuman olganda, sud ishlari va qarorlarining faollashishini ta'minlovchi eng muhim omillardan biri bo'lgan muammolarni hal qilishga katta imkon beradi.

Ixtisoslashgan Intellektual mulk sudlarining afzalliklariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Ixtisoslashgan Intellektual mulk sudlari, odatda, Intellektual mulk huquqlari egalari uchun mavjud bo'lgan odil sudlov sifatini oshiradi. Sudning

ekspertizasi nizolarni o'tgan tajribaga asosanib izchil hal qilish mumkinligini anglatib Intellektual mulk bilan bog'liq nizolar uchun juda muhimdir, chunki sudlardan ko'pincha Intellektual mulk huquqlarining buzilishining oldini olish yoki to'xtatish uchun vaqtinchalik choralar ko'rish to'g'risidagi arizalar bo'yicha juda tez qaror qabul qilish talab qilinadi.

Mazkur sudlarni afzalliklari bilan bir qatorda uning kamchiliklari ham bo'lib, Ixtisoslashgan sudlarini tashkil etish va ulardan foydalanish xarajatlari ularning asosiy kamchiligi bo'lishi mumkin, ayniqsa resurslari cheklangan va bu Intellektual mulk bilan bog'liq ishlar hajmi past bo'lgan mamlakatlar uchun ortiqcha xarajat hisoblanadi. Afsuski, O'zbekiston ham intellektual mulk bo'yicha ishlar kam bo'lgan mamlakatlar qatorida turibdi. Sudning samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan tajribani jalb qilish qimmatga tushishi va xususiy sektordan potentsial nomzodlarni jalb qilish uchun sudyalarning ish haqini oshirishni talab qilishi mumkin.

Shu o'rinda ixtisoslashgan sudlarni o'ziga xos jihatlari bo'lib bir tomondan intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal etishga ixtisoslashgan sudlarni tashkil etish bir tomondan kadrlar va moliyaviy muammolarni, bu sudlarni tashkil etishda protsessual qoidalarni ishlab chiqishni va vakolat doirasini aniq belgilanishi kabi muammolar vujudga kelmoqda. Negaki, Intellektual mulk sohasidagi nizolarni faqatgina bir sud emas balki O'zbekistondagi to'rtala sud tizimi ya'ni fuqarolik, iqtisodiy, jinoiy va ma'muriy sudlar ham ko'rib chiqadi. Bundan ko'rinib turibdiki, ixtisoslashgan sudni tashkil etadigan bo'lsak, mazkur sud bu sohadagi ham fuqarolik ham jinoiy masalalarni hal qilishga to'g'ri keladi. Bu O'zbekiston sud tizimida bir sud ichida jamiki choralarni ko'radigan alohida toifadagi sud degani. Shuning uchun ham mazkur sudlarni tashkil etgan taqdirda ham uni protsessual qoidalarini ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz.

Intellektual mulk sohasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilishdagi normativ huquqiy hujjatlarga to'xtaladigan bo'lsak, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 27-moddasiga ko'ra "har bir inson jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etishga, san'atdan bahramand bo'lishga, ilmiy taraqqiyotda ishtirok etish va uning samaralaridan foydalanish huquqiga ega" [11] ligi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt"ning 15-moddasi [12] ham xalqaro doirada muhim hisoblanadi.

Intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal qilishni tartibga soladigan O'zbekiston Respublikasining normativ huquqiy hujjatlarini birma-bir ko'rib chiqadigan bo'lsak, eng avvalo Konstitutsiyaning 53-moddasi [13], Jinoyat kodeksining 149-moddasi [14] O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 177, 1771 va 1772-moddalari [15], Fuqarolik kodeksining

1031-1111-moddalari [16], Ma'muriy organning intellektual mulk obyektlariga patent (guvohnoma) berish (ro'yxatga olish) haqidagi talabnomalarni ko'rib chiqmaganlik, patent (guvohnoma) berishni rad etish, muddatini uzaytirish yoki uzaytirishni rad etishga oid talablar ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi [17]ga binoan, intellektual faoliyat obyektlari va fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar, tovarlar, ishlar va xizmatlarga mulkiy huquqlari buzilganligi haqidagi ishlarni Iqtisodiy protsessual kodeksning 26-moddasiga [18] binoan ko'rib chiqiladi. "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida" [19], "Seleksiya yutuqlari to'g'risida" [20], "Integral mikroshemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida" [21], "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida [22]", "Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida" [23], "Firma nomlari to'g'risida [24]", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" [25], "Raqobat to'g'risida [26]", "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida [27]", "Telekommunikatsiyalar to'g'risida

[28]"gi qonunlari va intellektual mulk sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida hal qilinadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston respublikasi ratifikatsiya qilgan va sudlar tomonidan hisobga olinishi kerak bo'lgan shartnomalar ro'yhati "Intellektual mulkka oid ishlarni ko'rib chiqishning ayrim masalalari to'g'risida"gi 19-sonli Oliy sud plenum Qarorining 1-moddasida [29] belgilab o'tilgan.

Intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal qilishda O'zbekistonning milliy sudlari hozirgi kunda bir qator muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammolar orasida sudyalarning tomonidan intellektual mulk huquqi sohasi bo'yicha malakalarini oshirish, qonunchilikda ayrim noaniqliklar, xalqaro standartlarga mos keluvchi hamkorlik va sudlarning qarorlarining ijrosi bilan bog'liq qiyinchiliklar mavjud. Ushbu muammolar, o'z navbatida, sud tizimining samaradorligini ta'minlash uchun to'siq bo'lib xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi holatlarni o'rganib chiqqan holda, xulosa qiladigan bo'lsak, Intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal qilishda milliy sudlarning vakolatlari muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda intellektual mulkni himoya qilish va nizolarni samarali hal etish uchun sudlar asosiy rol o'ynaydi. Biroq, bugungi kunda sudlarning vakolatlari bir qator muammolar bilan to'qnashmoqda. Sudlararo qarorlarning muvofiqlik yo'qligi, qonunchilikdagi noaniqliklar, va ixtisoslashgan sudlarning yetishmasligi intellektual mulkni himoya qilishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Hozirgi kunda Intellektual mulk sohasidagi vujudga kelayotgan muammolarga to'xtaladigan bo'lsak,

Birinchidan, O'zbekistonda intellektual mulkni himoya qilishga doir yuridik bazaning mustahkam bo'lmaganligi va ayrim hollarda me'yoriy hujjatlarning to'liq

amalgama oshirilmaligi muammolarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha qonunlarning yetarlicha aniq emas bo'lib, bu sudlarda qaror qabul qilish jarayonini qiyinlashtiradi.

Ikkinchidan, intellektual mulk sohasida turli sudlar o'rtasida qarorlarning bir xil bo'lmaligi natijasida nizolarni hal qilishda murakkabliklar tug'dirmoqda. Bundan tashqari, intellektual mulk bo'yicha ixtisoslashgan sudlar yo'qligi sud jarayonlarini uzaytiradi va natijada adolatni ta'minlashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Uchinchidan, intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal etishga qaratilgan normativ huquqiy hujjatlar tarqoq joylashgani va protsessual normalarni yetishmaganligi tufayli muammolar paydo bo'lmoqdaligi aniqlandi.

Shu bilan birga, milliy sudlarning intellektual mulk sohasidagi vakolatlarini kengaytirish va samaradorligini oshirish uchun bir qator amaliy takliflar ishlab chiqilishi zarur. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan, sudlar intellektual mulk bo'yicha yanada chuqurroq bilimga ega bo'lishi uchun sudyalarning uchun maxsus treninglar, kurslar va sertifikatlash tizimini yo'lga qo'yish zarur. Shuningdek, intellektual mulk sohasidagi ekspertlar va yuridik maslahatchilarni jalb qilish sudlarning qarorlarining sifatini oshiradi.

Ikkinchidan, intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha qonunlar va normativ hujjatlar zamon talablari va xalqaro me'yorlarga muvofiq yangilanishi kerak. Bu orqali sudlarning qarorlari aniq va shaffof bo'lib, taraflar o'rtasidagi nizolarni hal qilishda yanada samarali bo'ladi.

Uchinchidan, intellektual mulk sohasidagi normativ huquqiy hujjatlarni birlashtirib kodifikatlashgan holda intellektual mulk to'g'risidagi kodeksni ishlab chiqish lozim deb hisoblaymiz.

To'rtinchidan, intellektual mulk masalalari bo'yicha ixtisoslashgan sudlar yaratish orqali sudlar o'zaro tajriba almashishni va tezkor qarorlar qabul qilishi ta'minlanadi.

Shunday qilib, milliy sudlarning intellektual mulk sohasidagi vakolatlarini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar O'zbekistonning yuridik tizimini mustahkamlash, investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu boradagi islohotlarning natijasida intellektual mulk huquqlari buzilishining oldini olish, adolatli va shaffof sud tizimi yaratish mumkin bo'ladi.

REFERENCE:

1. The official website: European Union Agency for Law Enforcement Cooperation, Intellectual property crime // available at: <https://www.europol.europa.eu/crime-areas/intellectual-property-crime> [accessed on: 17.11.2024]
2. The official website: National Intellectual Property Rights Coordination Center, Protecting Public Health and Safety // available at: <https://www.iprcenter.gov/> [accessed on: 17.11.2024]
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk elektron davlat xizmatlari statistik-tahliliy ma'lumotlari.
4. The official website; O'zbekiston respublikasi Mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati, Mualliflarning huquqlarini himoyasiga doir ochiq ma'lumotlar bazasi // available at: <https://uzavtor.uz/copyright-database?startDate=&endDate=&caseType=&page=0&size=100> [accessed on: 17.11.2024]
5. Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-401-sonli Prezident qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2023-y., 07/23/401/0961-son
6. Носырева Е.И. Альтернативное разрешение споров в США. - М., ОАО «Издательский Дом «Городец»2005. - С.20
7. Bakhramovna, Mokhinur. Intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal etish o'quv qo'llanma August 2022
8. Александров А.И. Уголовная политика и уголовный процесс в российской государственности: история, современность, перспективы, проблемы / Под ред. В.З. Лукашевича. - СПб. С.-Петербург. гос. ун-т, 2003. - С. 283-284.
9. Бахрах Д.Н. Юридический процесс и административное судопроизводство // Журнал российского права. - 2000. -№ 9. -С. 14-15
10. Абсалямов А.В. Проблемы административного судопроизводства в арбитражном процессе: Автореф. дисс.канд. юрид. наук. - Екатеринбург, 2000. - С. 5; Судебная система России. - М.: «Дело», 2000. - С. 324-325.
11. The official website: United Nations Organization, Universal Declaration of Human Rights // available at: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights> [accessed on: 17.11.2024]
12. The official website: United nations human rights office of the high commissioners, International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights, 16 December 1966 by General Assembly resolution 2200A (XXI) // available at:

<https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-economic-social-and-cultural-rights> [accessed on:17.11.2024]

13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
14. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.11.2024-y., 03/24/988/0885-son
15. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.11.2024-y., 03/24/991/0891-son
16. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.09.2024-y., 03/24/959/0698-son
17. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2024-y., 03/24/968/0760-son
18. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2024-y., 03/24/968/0760-son
19. Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risidagi 397-II-sonli Qonun // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.09.2024-y., 03/24/959/0698-son
20. Seleksiya yutuqlari to'g'risidagi Qonun // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.09.2024-y., 03/24/959/0698-son
21. Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risidagi 218-II-sonli Qonun // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 6.01.2024-y., 03/24/896/0037-son
22. Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risidagi 267-II-sonli Qonun // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 11.09.2024-y., 03/24/959/0698-son
23. Geografik ko'rsatkichlar to'g'risidagi O'RQ 757-sonli Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son
24. Firma nomlari to'g'risidagi O'RQ 51-sonli Qonun // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.09.2024-y., 03/24/959/0698-son
25. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi Qonun // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.08.2021-y., 03/21/709/0808-son
26. Raqobat to'g'risidagi Qonun // <https://www.lex.uz/uz/docs/-6518381>
27. Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risidagi Qonun // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son
28. Telekommunikatsiyalar to'g'risidagi Qonun // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.11.2022-y., 03/22/800/0990-son

29. Intellektual mulkka oid ishlarni ko'rib chiqishning ayrim masalalari to'g'risidagi 19-sonli OSPQ // <https://www.lex.uz/uz/docs/-6522606>